
Toshloq tumani hokimi Abduqahhor Djurabayev bugun navbatdagi fuqarolar qabulini o'tkazdi. Unda fuqarolar tomonidan jami 35 ta murojaat bildirildi.

Qabulda ishga joylashish, tadbirkorlik uchun yer, kadastr, moddiy yordam, yo'l, uy-joy, 2 yoshgacha bola puli va boshqa ko'plab muammolar bildirildi.

Ushbu qabulda fuqarolarimiz tomonidan jami 35 ta murojaatlar tinglanib, ularning 15 tasiga tegishli tartibda tushuntirish ishlari amalga oshirildi. Bundan tashqari, 10 ta murojaatlarni o'rganish yuzasidan mas'ul xodimlarga ko'rsatmalar berildi. Qolgan 10 ta murojaatlarning barchasi joyida o'rganilib, qonunchiligimizga muvofiq holda qanoatlantirildi.

Barcha murojaatlar bo'yicha hokim tomonidan tegishli tashkilot rahbarlariga tezda yechimini topishi bo'yicha topshiriqlar berildi.

2023-11-07 17:20:39